

KIM BUSIKNING “SAMGUK SAGI” ASARIDA TARIXIY NASNING RIVOJLANISH BOSQICHLARIDGI MIFOLOGEMALAR TALQINI

G'afforova Iroda Zayniddin qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti Sharq tillari fakulteti koreys filologiyasi yo'nalishi talabasi

Ashurov Shahobiddin Saidovich

Ilmiy rahbar, Samarqand davlat chet tillar instituti professori

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: mifologemalar, hangil, koreys nasri, xanja, tarixiy solnomalar, yilnomalar, asariqirol, separatistik, sulolalar tarixi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qadimgi koreyada tarixiy nasrning rivojlanishi, adabiy jarayon, tarixiy solnomalar haqida umumiy ma'lumotlar beriladi. Maqolaning asosiy mavzusi bo'lgan tarixiy nasr haqida tadqiqot olib borish orqali uning Koreyadagi, shuningdek, jahon adabiyotidagi o'rni haqida fikr yuritildi va bir qator tili o'rganilayotgan mamlakat adabiyoti fani bilan va boshqa shu kabi turli xil fanlar bilan uzviy bog'liqligi o'rganildi. Kim Busikning “Samguk sagi” asaridagi mifologemalar bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarildi. Ilmiy ishni o'rganish faoliyatidagi muhim ko'nikma va malakalarni egallashda ushbu maqola muhim manba sifatida tadqiq etildi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Ma'lumki, vaqt o'tgan sari, zamon rivojlangan sari tilga bo'lgan qiziqishlar ham rivojlanib bormoqda. Chet tillarini o'rganish va o'rgatish barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar qatori Vatanimiz – O'zbekistonda ham zamon talabiga aylandi. Qolaversa til o'rganish orqali shaxsiy manfaatlar yo'lida ham yaqindan tanishib borish uchun imkoniyat eshiklarini ochishga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, “Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham, albatta, bejiz emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu muayyan darajada xizmat qiladi.¹ Bu qonunlar o'z navbatida, ilg'or xorijiy ta'lim uslublarini joriy etish asosida o'rganilayotgan tilda gaplashuvchi xalqning tarixi, adabiyoti, madaniyati, siyosati va iqtisodiyoti sohasida chuqur bilimlarga ega bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlashni taqazo etib qoladi. Har qanday davlat tilini, jumladan sharq mamlakatlari adabiyoti, san'ati va ma'daniyatini o'rganishga bo'lgan qiziqish sharqona o'zbek xalqining e'tiborini ko'proq jalb qilmoqda.

Har qanday xalq adabiyotini o'rganish avvalo adabiyot tarixini bosqichlarga ajratishdan boshlanadi. Jumladan o'zbek adabiyotining shakllanib rivojlanishi ham uchta katta davrlarga bo'lingan. Koreys

¹O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi qarori.

adabiyotshunosligida ham bu bosqichlar uchtaga teng. Koreys adabiyotshunosligini davrlashtirish yarimorolda ilk davlatlar mavjudligi soʻngra sulolalar hukmronligi davrlari bilan bogʻlanadi. Uch yirik davr: uch davlat va Silla (X asrgacha), Koryo (X-XIV asrlar), va Choson(Li) (XIV-XX asr boshi) davrlariga ajraladi.

Koreys adabiyotining ilk davridan to bizgacha asosan kichik-kichik parchalar yetib kelgan. Shu sababli ilk davr adabiyotini oʻrganishda koʻp jihatdan tahminiy hukm chiqarilgan. Qadimgi davr adabiyoti namunalarini biz Kim Busikning “Samguksagi” asarida haqiqatga yaqinroq darajada bilib olishimiz mumkin.

“Samguksagi” asariqiroq Injongning buyrygʻi bilan qirollikka katta yordami teggan isteʼfodagi Kim Busikga qirollikning oʻchmas tarixi haqida asar yozishini buyurib, unga yordamlashishga 8 nafar amaldorni joʻnatadi. Shunday qilib 1145-yilda Silla, Goguryova Pekche davlatlarining X asr boshlarigacha boʻlgan tarixini oʻzichiga olgan asar “samguksagi” yaratiladi.. U Kim Busikga Qirollik Kotibiyati Bosh kotibi lavozimi beriladi. U umri davomida Koguryoda markazlashgan davlatni mustahkamlash gʻoyasini himoya qildi, mahalliy feodallarning separatistik intilishlariga qarshi kurashdi. Uning olib borilgan izlanishlari va harakatlari sababli bugungi kungacha saqlanib qolgan nodir asar orqali koreys qadimgi davr adabiyotini oʻrganishimiz mumkin Bu asar Koreyada mavjud boʻlgan eng qadimiy tarix kitobi boʻlib, unda har bir mamlakatning Uch qirollik davridagi yuksalishi, parokanda boʻlishi va oʻzgarishlari tasvirlangan. Bu asar Koreya tarixi milliy institute tomonidan raqamlashtirilgan va klassik xitoy tilidan **hangil** tiliga tarjima qilinib asl matni bilan birga saqlanib kelinmoqda.² “Samguksagi” asarini yozishda Kim Busik Xitoy solnomalari anʼanalariga tayandi. Xususan, u sobiq Xitoy sulolasining amaldori Sima Sianning hozirgi kunda “buyuk tarixchining yozuvlari” nomi bilan mashhur boʻlgan, “Sciribe’s Records” asariga ishora qilib oʻzining asarini “Samguksagi” deb atadi. Xitoy tarix navislik anʼanalariga koʻra tarixiy solnomalar toʻrt qismdan iborat klassik boʻlimlardan iborat boʻlishi lozim. Bunda “Yilnomalar”, jadvallar, monografiyalar va tarjimai hollardan iborat boʻlishi qabul qilingan. XII asrda “Samguksagi”ning yaratilib bir toʻplamga kelishiga turli xil turtki beruvchi omillar boʻlgan. Bularni tahminan mafkuraviy va siyosiy omillar deb tasniflash mumkin. Mafkuraviy omillar asarning Kim Busik tomonidan yozilgan Muqaddimasida namoyon boʻladi.

*Bugungi olimlar, yuqori martabali amaldorlar faqat “Besh klassika”ni, falsafiy risolalarni, shuningdek, **QinvaXan** tarixinigina bilishadi va batafsil muhokama qila oladi xolos. Lekin bizning tarixiy voqealarga kelsak hech narsani bilishmaydi. Mamlakat boshidan kechirgan tarixi yoʻq. Mamlakatni faqat johillar boshqaryapti. Bu achinarli haqiqat.*³

Koguryo, Pekche va **Silla** uch qirolligining har biri oʻzlarining oʻchmas, shonli tarixlarini yaratgan boʻlsada, ular tinimsiz urushlar, xalq qoʻzgʻolonlari, Koguryova Pekchening qulashi oqibatida yozilgan tarixiy asarlar yoʻqolib ketgan va bizgacha yetib kelmagan. Yana bir maqsad, mahalliy koreys savodxonlarini ona yurt tarixi boʻyicha tarbiyalashga oʻz tarixini bilib olishiga xizmat qiladigan tarix yaratish va ularga Konfutsiychilik taʼlimotining koreys namunalarini koʻrsatishdan iborat edi. Ammo unchalik aniq boʻlmagan boshqa omillar ham bor edi. Xitoy anʼanalarida sulolalar tarixini tuzish ham siyosiy maqsadlarga xizmat qilgan. Sulola tarixi keying sulola tomonidan yozilgan va uni yozish harakatining oʻzi keying sulola oʻzidan oldingi suloladan hukmronlik qilish usullarini meros qilib olganligini koʻrsatishga xizmat qilgan. Shu nuqtayi nazardan shuni yodda tutish kerakki, “Samguk sagi” toʻplami rasmiy buyruq asosida yozilgan asar boʻlib, Koryo qiroli tomonidan topshirilgan va uni tuzuvchi hodimlari markaziy byurokratiya tomonidantasiqlangan. Yuqorida aytib oʻtilganidek, bu asar yozilishi maqsadining bir jihati konfutsiydashgan byurokratiya olimlari va amaldorlarini oʻzlarining ona merosi va konfutsiychilik taʼlimotini mahalliy aholiga oʻrgatishadi.

²“삼국사기”. 한국사데이터베이스, 2022 yil.

³Hong, Wontak, Pr.Em. Seul universiteti (2009)/

“Samguksagi” asari 50 bobdan iborat bo‘lib, 28 bobini yilnomalar, 3 bobini xronologik jadvallar, 9 bobini turli shartnomalar va 10 bobini biografiyalar egallaydi. Barcha boblar yig‘ilib 9 kitobni tashkil etadi. Yilnomalar ham o‘z navbatida 3 ta Silla (12 bob), Koguryo (10 bob), Pekche (6 bob) jildlariga bo‘linadi.

Kim Busikasli Silladan bo‘lgan patriitsiy bo‘lib, o‘zi ham amaldagi buddist bo‘lsa ham, boshqaruvning asosiy prinsipi sifatida Buddizm ustidan Konfutsiylikni qo‘llab quvvatlaydi. Shunday qilib, uning kelib chiqishi va tendensiyalari “Samguksagi” asarida aks etadi. Rasmiy ravishda, Koguryova Pekche qirolliklari sobiq Silla bilan teng munosabatda bo‘ladi. Uchchalasi ham “davlat (국)” atamasi bilan, hamda ularning kuchlari mos ravishda “bizning xalqimiz” va “bizning qo‘shinlarimiz” degan ma‘noni anglatuvchi “abyeong (아병)” atamasi bilan ataladi. Misol tariqasida shuni keltirishimiz mumkinki, asarning XXI bobi (Koguryo qayd nomasi qirol Bojang bobi) da Kim Busik Ansi qal‘asini qamal qilishda tang imperatori Taizongni mag‘lub etgan Koguryo qo‘mondoni Yangmanchunni maqtagan va uni qahramon deb atagan. Shunga qaramay, Biografiyalar qismida mavzularning aksariyati Silladan (68%), Sillaning qaydnomalari esa sadoqat va jasoratning ajoyib namunalari bilan to‘ldirilgan. Qanday bo‘lmasin, xalq urushlari paytida arxivlari yo‘q qilingan, mag‘lubiyatga uchragan Koguryova Pekche qirolliklaridan ko‘ra Silla qirolligining hujjatlarini to‘plash osonroq bo‘lgan.⁴

Ba‘zi koreys tarixchilari, Xitoy va Sobiq Sillaga nisbatan bunday noto‘g‘ri munosabatda bo‘lgan “Samguksagi” da keltirilgan yozuvlarni tanqid qilishdi. Ular orasida koreys millatchi tarix navisligi asoschisi Sin Chaeho ham boretdi. U o‘zining tezislarining bir qismida quyidagilarni keltiradi:⁵

- Uch podsholik davrining haqiqiy qahramoni Koguryogenerali Ulchi Mundek edi, u 612-yilda sui imperatori Yang-tining kattabosqinchi qo‘shinini salsu daryosidagi tuzoqqa tushiradi va ajoyib g‘alabani qo‘lga kiritadi.
- Aksincha, XLI-XLIII boblarga loyiq bosh qahramon Kim Yusinni donolik va jasoratga ega mashhur sarkarda deb emas, balki burgutdek hiyla va shiddatli siyosatchi deb kiritish kerak. Uning hayotining buyuk xizmatlari jang maydonida bo‘lmagan, chunki u qo‘shni mamlakatlarni yashirin hiyla-nayrang bilan qiynagan odam edi.⁶
- Bundan tashqari, “Samguksagi” asarini tuzuvchilar Kimning yo‘qotishlarini arzimasi g‘alabalarga aylantirib, uning kichik g‘alabalarini Bo‘rttirib KO‘rsatishgan⁷.

Lekin xitoyga nisbatan mumkin bo‘lgan **sadaejuu** haqida asarning XLII bobida shunday deyilgan:

Podshoh dedi: “Tang qo‘shinlari biz uchun dushmanlarimizni yo‘q qildilar; Aksincha, biz ular bilan urush qilsak, osmon bizga yordam beradimi?”

Yusin: “It o‘z xo‘jayinidan qo‘rqadi, xo‘jayin oyog‘iga qadam qo‘ysa, uni tishlaydi. Qanday qilib biz bu qiyinchilikka duch kelsak, o‘zimizdan qutula olmaymiz? Sizdan iltimos qilaman, Buyuk podshoh ruxsat bering”.

Yuqorida bildirilgan tanqidlarga qaramay, Kim Busikning “Samguksagi” asari “Uchpodsholik” va “Birlashgan Silla” davridagi Koreya tarixini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etishi aniq. Nafaqat bu asar va uning buddist ham kasbi “Samgukyusa” o‘sha davr uchun bizgacha yetib kelgan koreys

⁴Kim Busik 1142-yilda istefo berishiniso‘rab, siyosiy frontdanchiqib ketadi.

Umrining oxirgi yillarini buddist amallarini bajarish uchun Gaegyeong yaqinidao‘zi qurdirgan Gvalla ni bodatxonasi dao‘tkazadi. Qirol Injong iste‘fodagi Kim Busikga qirollikning o‘chmatarixi haqida asar yozishini buyurib, uning yordamlashishga 8 nafar amaldorni jo‘natadi. Shunday qilib 1145-yilda Silla, Goguryova Pekche davlatlarining X asr boshlarigacha bo‘lgan tarixini o‘zicha o‘lgan asar “samguksagi” yaratiladi.

⁵McBride 1998, 135-bet. Makbryad, Richard D. II. 1998 yil. “Kim Yusin hayotiy yozuvlaridayashirin kun tartibi”. Acta Koreana. 1.

⁶Sin, Chaeho (1931). “조선상고사” (History of Ancient Korea, 2 vols.)

⁷“단재신채호전집편찬위원회” seul, Munjangsa, 1982 yil.

manbalari bo'lgani uchungina emas, balki "Samguksagi" juda ko'p ma'lumot va tafsilotlarni o'zichiga olganligi uchun ham mashhur hisoblanadi.

"Samguksagi" sari klassik xitoy tilida ya'ni qadimgi koreya aholisining yozma tilida (한자) yozilgan bo'lib, turli tillarga qilingan tarjimalarini ko'rishimiz mumkin. "Samguksagi"ning g'arb tilidagi yagona to'liq tarjimai Mixail Nikolaevich Pak tomonidan tarjima qilingan ruscha nashr bo'lib, u ikki qismda, 1959-yil va 2001-yilda nashr etilgan.

Xalq og'zaki ijodining barcha asarlari uzoq vaqt og'zaki shaklda saqlanib kelingan. Asrlar mobaynida folkloregga oid materialning tabiiy tanlanish jarayoni sodir bo'lgan, syujetlar va uslublar takominlashib borgan. Biz ularni rasmiy tarixiy asarlar va norasmiy tarixiy asardan bilib olishimiz mumkin. Koreys rivoyatlari va afsonalari bilan sehrlilik ertaklar o'rtasida yaqin aloqa mavjud, ba'zan, hatto qayerda afsona tugashi va ertak boshlanishini aniqlash qiyin, ertak syujetini esa mamlakatning haqiqiy tarixidan ajratish mushkul. Shuning uchun ham, koreys folklorida qadimgi koreys davlatlari Choson, Koguryo, Silla asoschilari haqidagi rivoyatlar juda ko'p. Ularda afsonaviy qahramonlar yarim tarixiy, yarim afsonaviy qirollar yoki Koreya qahramonlari sifatida tasvirlanadi⁸. Misol uchun, Kim Busikning "Samguksagi" asarida Koguryo davlatining asoschisi Tonmyon- Chumon haqida afsonaviy rivoyatlar keltirilgan.

Ular ichida Koguryo davlatining asoschisi Tonmyon-Chumon haqidagi rivoyatni tahlil qiladigan bo'lsak, rivoyatning dastlabki matnlari xitoy manbalarida tilga olinadi, eng birinchi koreyscha matn esa Koguryo davlatining podshosi Kvangetxo-Van stelasida qisqa va lo'nda keltirilgan. Koguryo asoschisi haqida to'liq syujetli hikoya aynan Kim Busikning "Samguksagi" asarida keltirilgan. U hikoya to'rtinchi qamarda Osmon podshosi o'g'lini yerga jo'natgani bilan boshlanadi. Osmon podshosining o'g'li ko'p sonli a'yonlari bilan birga Unimsan tog'iga tushibdi. Podsholikishlarini tinglash uchun ertablari yerga tushar kechqurun esa yana osmonga qaytar edi. Kunlarning birida u Daryo podshosining qizlarini yoqtirib qoladi va ulardan birini mahramiga olmoqchi bo'ladi. Lekin qizlar unga tutqich bermaydi. Shunda podsho nefrit qamchi bilan yerda koshona rasmini chizib qizlarni taklif qilibdi va ularning to'ng'ichini ushlab muaffaq bo'libdi. Daryo podshosi buni eshitib jahli chiqibdi va qizini nikohga olishni talab qilibdi. Osmon podshosining o'g'li Dayro podshosining qizi bilan birga suv osti saltanatiga tushibdi. Daryo podshosining ko'p sinovlaridan o'tib, Daryo podshosining qizini shu yerda qoldirib, o'zi suv osti saltanatidan qochib ketibdi. Quloq sizligi uchun ota o'z qizining lablarini u gapiraolmaydigan qilib cho'zishni buyuribdi va uzoq ko'lga surgun qilibdi. Kunlarning birida ko'l podshosi Kim va daryo podshosining qizini ko'rib qolib uni alohida saroyga o'tkazib, og'zini kesishibdi. Ayol bag'riga quyosh nuri tegib, u homilador bo'libdi va tuxum tug'ibdi. Uning tuxumini qushlar va hayvonlar qo'riqlayboshdi. Nihoyat tuxum ochilib undan g'ayri oddiy bola tug'ilibdi. U juda chiroyli va yoshligidan g'aroyib qobiliyatlarga ega bo'lgan ekan. O'zi kamon, o'qlar yasab undan mohirlik bilan ota olar ekan. Yuzta o'q otsa, yuzta o'qning hammasini shonga tekkan ekan. Puyo tilida "kamondan yaxshi otmoq" iborasi "chumon" tarzida yangraydi, shu bois uni Chumon deb nomlaydi.

Qardosh xalqlar adabiyotini o'rganishga bo'lgan e'tibor kuchayib borayotgan bir davrda Koreya respublikasi adabiyotiga bir nazar ushbu davlat bilan iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy aloqalarni mustahkamlashga ko'maklashadi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Koreya adabiyotining ilk rivojlanish davrini o'rganish orqali biz ilk davlat hukmdorlari haqida va ular davrida adabiyotning mavqei xususida ma'lumotga ega bo'lish bilan bir qatorda, ular sharafiga bitilgan afsona va rivoyatlarni o'z xalq ijodi namunalimiz bilan qiyoslab, qiyosiy adabiyotshunoslik sohasiga ham yangilik olib kirishga musharraf bo'lamiz.

Ushbu kursishi keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan bo'lib, unda avvalo, yoshlarga hududiy jihatdan uzoq, lekin qarashlari jihatidan yaqin qo'shnilarimiz haqida umumiy ma'lumot berilgan.

⁸O'rganilayotgan mamlakat adabiyoti.20-bet.

Talabalargamamlakat adabiyoti, koreys adabiyotining qadimiyatdan bugungi kunga qadar tarixi, xususiyatlari va qonuniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari, har bir davrning mashhur yozuvchi va shoirlari ijodi bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka shakllantirish nazarda tutilgan. Bugungi kurs ishi bo'yicha taqqiqot olib borish davomida quyidagi xulosalarga kelindi:

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, uch qirollik davrida adabiyotga e'tibor sezilarli darajada ortdi va adabiyot tarixida bu davrda yashab ijod etgan Kim Busik va uning nodir asarlarining o'rni beqiyos bo'ldi. Uning asarlarini tahlil va tadqiq etish ikki do'stona xalq adabiyoti va madaniyati uchun ulkan yutuq, zafarlar keltirishi ko'zda tutildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.
2. Jo'liboy Eltazarov, Kim in Te. Janubiy Koreya: o'tmish va bugun. O'quv qo'llanma. – Samarqand, 2002., 128 b
3. V.C. Xan. Koreya tarixi. – Toshkent: Baktria Press, 2013. - 128 b
4. V.N.Kim, U.T.Saydazimova, I.L.Pak. O'rganilayotgan mamlakat adabiyoti (Koreya). O'quv qo'llanma, – Toshkent: Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti, 2010. -192 b
5. История Востока. Т. 1. Восток в древности. В 6 т. Рос. акад. Наук, Ин-т востоковедения; Отв. ред. В. А. Якобсон. – М. Восточная литература, 2000.
6. История Востока. Т. 2. Восток в средние века / Отв. ред. Л.Б. Алаев, К.З. Ашрафян. – М. 2000.
7. История Кореи (с древнейших времен до наших дней). В 2-х томах. – М. Наука, 1974.
8. Ким В.Н., Сайдазимова У Т. Пак И.Л. Литература страны изучаемого языка (Корея). Учебное пособие. – Ташкент, 2003. – С. 23.
9. Концевич Л.Р. Корейская средневековая историческая проза в ее историческом и жанровом развитии. <http://litcha.ru>
10. Ли Ги Бэк. История Кореи. Новая трактовка. Перевод с корейского С.О.Курбанова, – М., 2000. С. 87.
11. Тихонов В.М. История Кореи. – М. 2001. – С. 52. 2 Пак М.Н. Описание корейских племен начала нашей эры. В альманахе "Российское корееведение", вып. № 2. – М., 2001. – С. 19
12. Saloxiddinov, M. (2023). THE HISTORY OF LINGUISTIC TYPOLOGY. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(1 Part 3), 118-120.